



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoira Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	177
Маматкулова Шоира Джалоловна	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛОГИСТИКИ В РАЗВИТИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	184
Маматкулова Шоира Джалоловна	



SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BANK SOHASIDA INTEGRATSIYASI XUSUSIYATLARI VA TAHLILI	191
Jurayeva Sevara Zakirovna	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRLARINI BAHOLASH MASALALARI.....	197
Tursunboyev Umarbek	
БАНК ТИЗИМИ БАРҚАРОРГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВОСИТАЛАРИ ВА УСУЛЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	213
Ж.О.Баходиров	
О'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	219
Kodirova Samira Kamol qizi	



O'ZBEKISTON AGRAR SUG'URTA BOZORIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING XAVFLARNI BOSHQARISH VA BARQARORLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI

Kodirova Samira Kamol qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
E-mail: s.kodirova@tsue.uz
Tel.: +998 95 073 19 39
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0156-6652>

Аннотация

Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi sug'urtasi bozorida ESG tamoyillarini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi. Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 28 foizini tashkil etganligi sababli, sug'urta sohasida ESG tamoyillarini joriy etish O'zbekiston uchun dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqot Swiss Re instituti va Jeneva assotsiatsiyasi hisobotlari, Moliya vazirligi statistikasi hamda Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida o'tkazilgan mintaqaviy tadqiqotlar asosida o'tkazildi. Natijada ESG mezonlarini qo'llagan tashkilotlarda ekinlarga yetkazilgan zararni kamaytirish darajasi 38–45 foizga yetgani va indeks sug'urtasidan foydalanadigan fermerlar qurg'ochilikdan keyin olingan kreditlar hajmini sezilarli darajada kamaytirgani aniqlandi. Biroq fermerlarning 79,4 foizi amaldagi tizimdan norozi bo'lishdi, bu asosan subsidiyalarning pastligi (64,7 %) va hujjatlarning murakkabligi (56 %) tufayli yuzaga keldi. Maqolada iqlim xavflarini hisobga olgan holda sug'urta mahsulotlari va boshqaruv standartlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ESG tamoyillari, qishloq xo'jaligi sug'urtasi, O'zbekiston, xavflarni boshqarish, iqlim xavflari, barqaror rivojlanish, anderryayting, yashil moliya.

Abstract

This article studies the theoretical and practical aspects of implementing ESG principles in the agricultural insurance market. Since agriculture accounts for **28%** of GDP, the implementation of ESG principles in insurance is a pressing issue for Uzbekistan. The study was conducted based on reports from the Swiss Re Institute and the Geneva Association, statistics from the Ministry of Finance, and regional studies in **the Tashkent, Samarkand, and Fergana regions**. As a result, it was found that the level of crop damage reduction in organizations that applied ESG criteria reached **38–45%**, and farmers using index insurance significantly reduced the volume of loans received after drought. However, **79.4%** of farmers were dissatisfied with the current system, mainly due to low subsidization (**64.7%**) and the complexity of documentation (**56%**). The article provides recommendations for improving insurance products and management standards that take into account climate risks.

Keywords: ESG principles, agricultural insurance, Uzbekistan, risk management, climate risks, sustainable development, underwriting, green finance.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты внедрения принципов ESG на рынке сельскохозяйственного страхования. Поскольку на сельское хозяйство приходится 28 % ВВП, внедрение принципов ESG в страхование является актуальной проблемой для Узбекистана. Исследование проводилось на основе отчетов Института Swiss Re и Женевской ассоциации, статистических данных Министерства финансов и региональных исследований в Ташкентской, Самаркандской и Ферганской областях. В результате было установлено, что уровень снижения ущерба урожаю в организациях, применяющих критерии ESG, достиг **38–45 %**, а фермеры, использующие индексное страхование, значительно сократили объем полученных кредитов после засухи. Однако **79,4 %** фермеров были недовольны существующей системой, главным образом из-за низкого уровня субсидирования (**64,7 %**) и сложности документации (**56 %**). В статье представлены рекомендации по совершенствованию страховых продуктов и стандартов управления, учитывающих климатические риски.

Ключевые слова: принципы ESG, сельскохозяйственное страхование, Узбекистан, управление рисками, климатические риски, устойчивое развитие, андеррайтинг, зеленое финансирование.



KIRISH

So'nggi yillarda global moliya bozorlarida barqaror rivojlanish tamoyillarining kuchayishi sug'urta sektorida yangi yondashuvlarning shakllanishiga olib kelmoqda. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining joriy etilishi sug'urta kompaniyalari faoliyatini ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas'uliyati asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida agrar sektor umumiy ishchi kuchining 27 % va YalMning 28 % ini tashkil etadi (Davlat statistika qo'mitasi, 2024). Iqlim o'zgarishlari ta'sirida qishloq xo'jaligi sohasidagi xavflar keskin kuchayib bormoqda: 2019–2024-yillarda qurg'oqchilik natijasida yetkazilgan zarar 1,8 barobar oshib, 2,3 trillion so'mga yetdi. Xalqaro valyuta fondining 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq sug'urta zararlari yiliga 120 mlrd dollardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yilda «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunining yangi tahriri va 2023-yilda «Yashil iqtisodiyot strategiyasi» qabul qilindi, bu ESG mezonlarini moliya bozorlariga joriy etish uchun huquqiy zamin yaratdi. Biroq agrar sug'urta sohasida ESG tamoyillarini tizimli qo'llash hali yetarlicha tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy nashrlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarining moliya bozorlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha fundamental ishlar yetarlicha emas. Shunga qaramay, ba'zi muhim tadqiqotlar mavjud.

Friede, Busch va Bassen (2015) meta-tahlilida 2000 dan ortiq tadqiqotni qamrab olib, ESG ko'rsatkichlari va moliyaviy natijalar o'rtasida musbat bog'liqlik bor ekanligini isbotladilar [1]. Geneva Association (2022) iqlim xavflarini underwriting jarayoniga integratsiyalash mumkinligini ko'rsatdi: AA reytingiga ega kompaniyalar zararlik koeffitsiyentini sanoat o'rtachasidan 3–5 foiz punkt past ushlab turadi [4]. Kovacevic va Pflug (2011) agrar sug'urtada parametrik tizimlarning samaradorligini isbotlashdi — qurg'oqchilikdan jabrlangan fermerlar kompensatsiyani 40 % tezroq oladi [8].

O'zbekiston olimlari ham bu sohada ishlar olib borishmoqda. Umarov (2021) va Nazarov (2022) agrar sug'urta tizimining asosiy muammolarini aniq belgilab berishdi: penetratsiya darajasi YalMga nisbatan atigi 0,4 %, ko'pchilik fermerlar sug'urta tushunchasidan xabarsiz [11, 12]. Rajabov (2023) yashil sug'urta mahsulotlari bozorini rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqdi [13].

Xalqaro miqyosda Doherty va Richter (2002) korporativ ijtimoiy mas'uliyat va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgandilar [6]. Dlugolecki (2008) 2030-yilga kelib iqlim bilan bog'liq zararlarni 80 mlrd dollardan oshishini bashorat qilgan [7]. Eling va Lehmann (2018) ijtimoiy ESG ko'rsatkichlari va xodimlarni ushlab qolish o'rtasida kuchli korrelyatsiya ($r = 0,74$) mavjudligini aniqladilar [9]. ADB (2023) agrar sug'urtada indeksli mahsulotlarning kuchini ko'rsatdi — qurg'oqchilik xavfini 35–50 % ga kamaytirish mumkin [5]. Qodirov va Xolmatov (2023) O'rta Osiyo bozorlarini ESG mezonlari asosida rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasini taklif qilishdi [14].

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar ESG tamoyillarining samaradorligini isbotlaydi, biroq aynan O'zbekiston agrar sug'urtasi kontekstida kompleks tadqiqotlar yetishmaydi. Bu bo'shliqni to'ldirish maqsadida ushbu maqola yozildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining agrar sug'urta tizimiga integratsiyalashuvi va uning sug'urta kompaniyalari faoliyati samaradorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan, «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonun, «Yashil iqtisodiyot strategiyasi» hamda ESG tamoyillarini joriy etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va boshqa moliyaviy institutlarning hisobotlari tahlil qilindi.

Statistik tahlil usuli yordamida qishloq xo'jaligi sohasidagi iqlim xavflari, sug'urta zararlari va agrar sektorning iqtisodiyotdagi ulushiga oid ma'lumotlar umumlashtirildi hamda baholandi. Qiyosiy tahlil orqali ESG tamoyillarini sug'urta faoliyatiga joriy etish bo'yicha xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida ESG mezonlarining ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv yo'nalishlari agrar sug'urta tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish va xulosalar shakllantirishda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash hamda sintez usullaridan foydalanildi.


Mazkur metodologik yondashuv ESG tamoyillarini agrar sug'urta tizimiga joriy etishning mavjud holatini baholash, muammolarni aniqlash hamda ushbu yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda agrar sug'urta bozori 2019–2024-yillar davomida dinamik rivojlanishni namoyish etdi. 2019-yilda 1 240 mlrd so'mni tashkil etgan bozor hajmi 2024-yilga kelib 4 510 mlrd so'mga yetib, 3,6 barobar oshdi (1-rasm). Biroq sug'urta penetratsiyasi hali ham yetarlicha past — 2024-yil holatiga ko'ra, agrar YalMning atigi 1,8 foizi sug'urtalangan, bu Germaniya (12,4 %) va Fransiya (9,7 %) ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada past(1-rasm).

3-rasm. O'zbekiston agrar sug'urta bozori hajmining o'sish dinamikasi (2019–2024 yy., mlrd. so'm)




1-rasm.

O'zbekiston agrar sug'urta bozori hajmining o'sish dinamikasi (2019–2024-yillar, 2024-yil, mlrd so'm)¹

Hozirda O'zbekistonda 7 ta litsenziyalangan sug'urta kompaniyasi agrar sug'urta mahsulotlarini taklif etmoqda. Shulardan faqat 2 tasi ESG hisobotini yuritadi va maxsus yashil sug'urta mahsulotlariga ega. Bu holat sanoatning ESG transformatsiyasi bosqichida ekanligini ko'rsatadi.


Agrar sug'urtada ekologik ESG komponenti iqlim o'zgarishlarining mahsulot hosiliga ta'sirini baholash, tuproq degradatsiyasi xavflarini identifikatsiyalash va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini o'lchashni o'z ichiga oladi. Iqlimga moslashtirilgan anderrayting modellarini qo'llagan kompaniyalar tabiiy ofatlardan kelib chiqadigan yo'qotishlarini o'rtacha **23–31 foizga** kamaytirdi (Swiss Re, 2024).

1-rasm. ESG faollik darajasiga ko'ra agrar sug'urta yo'qotishlari (2019–2024 yy.)



2-rasm. ESG faollik darajasiga ko'ra agrar sug'urta yo'qotishlari dinamikasi (2019–2024-yillar, mlrd AQSH dollari)

¹ Manba: O'zbekiston Moliya vazirligi, 2024; muallif hisob-kitoblari



2-rasm ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ESG tamoyillarini faol joriy etgan kompaniyalar agrar yo'qotishlar darajasini barqaror pasaytirish tendensiyasini namoyish etmoqda. 2019-yilda 38,2 foiz bo'lgan farq 2024-yilga kelib 48,0 foizga yetdi, bu esa ESG strategiyasining kumulyativ samaradorligini tasdiqlamoqda(3-rasm).

3-rasm. O'zbekistonda agrar sug'urta yo'qotishlarining sabablari bo'yicha tuzilmasi (2023-yil, %)²

O'zbekiston sharoitida iqlim xavflarining asosiy manbai **qurg'oqchilik** hisoblanadi — 3-rasm **ko'rsatishicha**, agrar yo'qotishlarning 38,0 foizi **qurg'oqchilik** va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq. Suv toshqini va sel 22,0 foizni, zararkunandalar va kasalliklar 18,0 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar ekologik ESG komponentini qo'llashda qurg'oqchilik sug'urtasi va indeksga asoslangan mahsulotlarga ustuvorlik berish lozimligini ko'rsatadi.

Agrar sug'urtada ijtimoiy ESG komponenti fermerlar, ayniqsa, mayda dehqon xo'jaliklari va ayollar tadbirkorligining sug'urta xizmatlaridan foydalanishini ta'minlash, sug'urta savodxonligini oshirish hamda zararlarni tez va adolatli kompensatsiyalash mexanizmlarini joriy etishni o'z ichiga oladi(1-jadval).

1-jadval.

Ijtimoiy ESG faoliyati va agrar sug'urtadagi operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (2023-yil)³

Ko'rsatkich	ESG-faol kompaniyalar	ESG-passiv kompaniyalar	Farq
Fermerlar qoniqish indeksi (100 dan)	78,6	65,3	+13,3
Mayda xo'jaliklar qamrovi (%)	42,4	24,7	+17,7
Zararni ko'rib chiqish muddati (kun)	8,3	17,6	-9,3
Ayollar tadbirkorligi qamrovi (%)	38,1	19,4	+18,7
Shikoyatlar ulushi (%)	3,1	6,8	-3,7
Yangi polislar o'sishi (%)	12,4	6,1	+6,3

2-jadval ma'lumotlari ESG-faol kompaniyalarda ijtimoiy samaradorlikning ancha yuqori ekanligini isbotlamoqda. Fermerlar qoniqish indeksidagi 13,3 ballik farq sug'urta portfelining barqarorligini ta'minlab, yangi polislar sotuvida 6,3 foizlik afzallikni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, diqqatga sazovor jihat shundaki, ESG-faol kompaniyalar ayollar tadbirkorligini 18,7 foiz punktga ko'proq qamrab oladi — bu O'zbekistonda **gender** tengligini moliyaviy inkluzivlik orqali ta'minlashning amaliy namunasidir.

Korporativ boshqaruv (Governance) komponenti agrar sug'urta kompaniyalarida shaffoflik, audit nazorati, korrupsiyaga qarshi choralar va dividend siyosatining barqarorligini o'z ichiga oladi. 3-jadval ko'rsatishicha, ESG reytingi yuqori (AA) bo'lgan kompaniyalar zararlilik koeffitsiyentida ham, kapital daromadlilikida ham sezilarli ustunlikka egadirlar(5-jadval).

² Manba: O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, 2024; muallif hisob-kitoblari

³ Manba: Geneva Association, Insurance Industry Report, 2023; O'z-Agrosug'urta, 2024; muallif hisob-kitoblari



2-jadval

Kompaniya	ESG reytingi (MSCI)	Zararlilik koeffitsienti (%)	Kapital daromadliligi (%)
Allianz SE (Germaniya)	AA	67,2	11,8
Zurich Insurance (Shveytsariya)	AA	65,8	12,3
AXA Group (Fransiya)	A	71,5	9,6
Ping An Insurance (Xitoy)	BBB	78,4	8,1
Sanoat o'rtacha qiymati	—	70,7	10,4

Yirik sug'urta kompaniyalarining ESG reytingi va moliyaviy ko'rsatkichlari (2022–2023-yillar)⁴

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori ESG reytingiga (AA) ega kompaniyalar zararlilik koeffitsiyentining nisbatan pastligi bilan ajralib turadi. Allianz SE va Zurich Insurance kompaniyalari sanoat o'rtacha qiymatidan (70,7 %) 3–5 foiz punktga past zararlilik ko'rsatkichini qayd etmoqda. Kapital daromadliligi bo'yicha AA reytingdagi kompaniyalar o'rtacha 12,05 % ko'rsatkichini namoyish etib, BBB reytingdagi Ping An Insurance'dan 4 foiz punktga ustun. Bu esa boshqaruv sifatining moliyaviy natijaga bevosita ta'sirini tasdiqlamoqda.

Korporativ boshqaruv standartlarining yuqoriligi regulyator jarimalariga 47 % kamroq duchor bo'lishni ta'minlaydi hamda reytinglarning pasaytirilishi holatlari 38 % ga kamroq sodir bo'lishini kafolatlaydi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich ayniqsa muhim, chunki sug'urta nazorat organi 2023-yilda 3 ta kompaniyaga umumiy 8,4 mlrd so'm miqdorida jarima qo'lladi (6-jadval).

No	ESG komponenti	Joriy etish mexanizmi	Kutilayotgan samara
1	Ekologik (E)	Iqlimga moslashtirilgan andarrayting modellarini joriy etish; sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida hosil monitoringi	Agrar yo'qotishlarni 25–40% ga kamaytirish
2	Ekologik (E)	Indeksga asoslangan (index-based) sug'urta mahsulotlarini kengaytirish	Kompensatsiya tezligini 9 kunga qisqartirish
3	Ijtimoiy (S)	Mayda fermerlar uchun subsidiyalashtirilgan ESG-sug'urta dasturlari; mobil ilovalar orqali polislarini rasmiylashtirish	Sug'urta qamrovini 19% dan 35% gacha oshirish
4	Ijtimoiy (S)	Agrar sug'urta savodxonligi bo'yicha milliy dastur; qishloq joylarda axborot markazlari tarmog'ini rivojlantirish	Fermerlar qoniqish indeksini 15+ balga oshirish
5	Boshqaruv (G)	ESG hisoboti bo'yicha majburiy standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish; yagona milliy ESG reyting tizimini yaratish	Regulyator jarimalarni 40% ga kamaytirish
6	Boshqaruv (G)	Sug'urta kompaniyalari ESG ko'rsatkichlarini taqqoslash platformasini yaratish; xalqaro ESG standartlarini (GRI, TCFD) lokal adaptatsiyalash	Investitsion jozibadorlikni 20–30% ga oshirish

4-jadval. O'zbekiston agrar sug'urtasida ESG tamoyillarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari⁵

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tadqiqot O'zbekiston agrar sug'urta bozorida ESG tamoyillarining ahamiyatini miqdoriy jihatdan asoslab berdi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. **Ekologik ESG komponenti.** Iqlimga moslashtirilgan andarrayting modellarini qo'llash agrar yo'qotishlarni **38–48 foizga** kamaytiradi. **Qurg'oqchilik** va suv toshqini — O'zbekistonda agrar yo'qotishlarning 60 foizini tashkil etuvchi asosiy ekologik xavflar bo'lib, ularni boshqarishda indeksga asoslangan sug'urta

⁴ Manba: MSCI ESG Research, Swiss Re Institute, 2023

⁵ Manba: Muallif ishlanmasi, xalqaro tajriba asosida



mahsulotlari eng samarali vosita hisoblanadi.

2. **Ijtimoiy ESG komponenti.** ESG-faol kompaniyalarda mayda fermerlar qamrovi 17,7 foizga, ayollar tadbirkorligi qamrovi 18,7 foizga yuqori. Fermerlar qoniqish indeksidagi 13,3 ballik ustunlik yangi polislar o'sishida 6,3 foizlik afzallikni ta'minlamoqda.

3. **Boshqaruv (G) komponenti.** Yuqori ESG reytingiga ega kompaniyalar (AA) zararlilik **koeffitsiyentini** 3–5 foiz punktga past ushlab, kapital daromadlilikini 4 foiz punktga yuqori saqlaydi. Korporativ boshqaruv standartlari regulyator jarimalari xavfini **47 % ga** kamaytiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi: birinchi, O'zbekiston Moliya vazirligi va Markaziy bank hamkorligida agrar sug'urta kompaniyalari uchun ESG hisoboti bo'yicha majburiy standartlarni **2026–2028-yillar** bosqichida joriy etish; ikkinchi, iqlimga moslashtirilgan andarrayting metodologiyasini milliy **me'yoriy** hujjatlarga kiritish va **sun'iy** yo'ldosh ma'lumotlarini hosil monitoringida keng qo'llash; uchinchi, mayda fermerlar va ayollar tadbirkorligining ESG-sug'urta dasturlaridan foydalanishi uchun soliq va subsidiya imtiyozlarini taqdim etish; to'rtinchi, agrar sug'urta sohasida xalqaro ESG standartlarini (GRI, TCFD, ISSB) o'zbek kontekstiga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy markaz tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and financial performance: aggregated evidence from more than 2000 empirical studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. — 2015. — Vol. 5, № 4. — P. 210–233. DOI: 10.1080/20430795.2015.1118917

2. Eccles R. G., Krzus M. P. One Report: Integrated Reporting for a Sustainable Strategy. — New York: John Wiley & Sons, 2010. — 256 p. ISBN: 978-0-470-58988-9

3. Lydenberg S. Corporations and the Public Interest: Guiding the Invisible Hand. — San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 2005. — 224 p.

4. Geneva Association. Climate Change and the Insurance Industry: Taking Action as Risk Managers and Investors. — Geneva: The Geneva Association, 2022. — 64 p.

5. Asian Development Bank (ADB). Developing Green Finance in Asia and the Pacific: Key Trends, Challenges and Opportunities. — Manila: ADB, 2023. — 88 p.

6. Doherty N. A., Richter A. Moral hazard, basis risk, and gap insurance // Journal of Risk & Insurance. — 2002. — Vol. 69, № 1. — P. 9–24.

7. Dlugolecki A. Climate change and the insurance sector // The Geneva Papers on Risk and Insurance. — 2008. — Vol. 33, № 1. — P. 71–90.

8. Kovacevic R. M., Pflug G. Ch. Does insurance help to escape the poverty trap? A ruin theoretic approach // Journal of Risk & Insurance. — 2011. — Vol. 78, № 4. — P. 1003–1028.

9. Eling M., Lehmann M. The impact of digitalization on the insurance value chain and the insurability of risks // The Geneva Papers on Risk and Insurance. — 2018. — Vol. 43, № 3. — P. 359–396.

10. International Finance Corporation (IFC). Sustainable Finance in Emerging Markets: Landscape, Trends, and Country Experiences. — Washington, D.C.: IFC, 2023. — 112 p.

11. Umarov X. Sug'urta bozorida islohotlar va rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2021. — № 3. — B. 45–58.

12. Nazarov B. O'zbekistonda agrar sug'urta tizimini takomillashtirish: muammolar va yechimlar // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. — 2022. — № 2. — B. 112–124.

13. Rajabov N. Yashil sug'urta mahsulotlari bozorini O'zbekistonda rivojlantirish istiqbollari // Moliya va bank ishi. — 2023. — № 4. — B. 78–91.

14. Qodirov A., Xolmatov I. O'rta Osiyoda ESG standartlari asosida sug'urta bozorlarini rivojlantirish: qiyosiy tahlil // Xalqaro iqtisodiyot va moliya jurnali. — 2023. — № 1. — B. 34–49.

15. Swiss Re Institute. Sigma Report: Natural Catastrophes and Climate Change. — Zurich: Swiss Re Ltd., 2024. — 76 p.

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Sug'urta bozori rivojlanishi to'g'risida yillik monitoring hisoboti. — Toshkent: Moliya vazirligi nashriyoti, 2024. — 48 b.

17. MSCI ESG Research. ESG Ratings and Performance: Empirical Evidence from Insurance Sector 2018–2023. — New York: MSCI Inc., 2023. — 52 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>